

UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABLARIDA TARIX DARSLARIDA TA`LIMIY O`YIN TEKNOLOGIYALARI-AFZALLIK VA XUSUSIYATLARI

Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani 7- o'rta ta'lism maktabining

tarix fani o'qituvchisi

Djavliyev Bobirbek Babamuratovich

Annotasiya: Maktablarda dars jarayonida pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish o`yin texnologiyasi asosida dars o'tishning yutuqlari, tarix darslarida ta`limiy o`yin texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tavsiyalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik texnologiya, talimiyl o`yin texnologiyasi, aktiv faoliyat, o`quv bilish motivi, didaktik o`yinli dars.

Аннотация: Освещены эффективное использование педагогических технологий в обучении, достижения уроков на основе игровых технологий, рекомендации по использованию образовательных игровых технологий на уроках истории.

Ключевые слова: Педагогическая технология, обучающая игровая технология, активная деятельность, учебный мотив, дидактическое игровое занятие.

Annotation: Effective use of pedagogical technologies in education, achievements of lessons based on game technology, recommendations on the use of educational game technologies in history lessons are highlighted.

Key words: Pedagogical technology, educational game technology, active activity, learning motive, didactic game lesson.

Jamiyatning ma'naviy takomili unda amalga oshiriladigan ta'lim - tarbiya ishlarining mazmuni, shakl va mohiyatiga bog'liqdir. Shu boisdan ham ta'limdagi yangilanishni,

respublikamizda amalga oshirilayotgan bosqichma - bosqich ta'lim tizimini pedagogik talqin qilish, bu jarayonni samaradorli kechishini ta'minlash zaruriyati yuzaga keladi. Bugungi kunda zamonaviy talimda oqitishni samarali tashkil etishda pedagogik texnologiyalar va ularning turlaridan keng foydalanilmoqda. PT va oqitish texnologiyalarining asosiy maqsadi ijodiy tafakkur sohibini yetishtirishdan iborat. Bu maqsad-davlat talim standartlarining bosh talabidir. Ta`lim jarayonidagi har bir texnologiya berilgan topshiriqlar o`quvchining ijodiy fikrlashiga va ijodiy rivojlanishiga olib kelsin. Dars jarayonida shunday vaziyat yaratish kerakki o`quvchi o`z xohishi bilan izlansin, tafakkurini rivojlantirsin, intilsin unda fanni egallahga qiziqish uygonsin. Darsda mana shunday vaziyatni yaratishda o`quvchiga motivatsiya bera oladigan pedagogik texnologiyalardan biri bu-ta`limiy o`yin texnologiyasidir. O`yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini o`quvchilarning faollashtiruvchi va jadallashtinivchi faoliyati tashkil etadi O`yin olimlar tadqiqotlariga ko`ra mehnat va o`qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. L.S. Vigodskiy o`yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o`zlashtirish vositasi sifatida ta'riflaydi. A.N. Leontev o`yinga shaxsning xayolotdagi amalga oshirib bo`lmaydigan qiziqishlari (manfaatlari)ni xayolan amalga oshirishdagi erkinligi sifatida qaraydi. Psixologlar ta'kidlaydilarki, o`yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bo`gлиq emas, lekin har bir yoshdagagi shaxs uchun o`yin o`ziga xos bo'ladi. Shulardan kelib chiqqan holda o`yinga faoliyat jarayon, o`qitish metodi sifatida qarashimiz mumkin. O`yinning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatda bilim, malaka va ko`nikmalarini qo'llash, umumta'l'im malaka va ko`nikmalarini rivojlantirish, mehnat ko`nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo'ladi. Tarix darslarini tashkil etishda o`quvchilar uchun ma'lumotlarning ko'pligi, o`quvchilarni zeriktirib qo'ymaslik kabi elementlarni hisobga olgan holda, to'plangan ma'lumotlarni tizmli esda saqlab qolish va mustahkamlashda shuningdek to'plangan bilimlarni amaliyatda qo'llay olishda o`yinli texnologiyalardan foydalanishning samarasi beqiyosdir. Buni ayniqsa 5-6-7 -sinf o`quvchilarida dars

jarayonida qo'llash maqsadga muvofiqdir. Faoliyatim davomida shuni kuzattimki, darsga uqiziqishi past, o'zlashtirish darjasini quyi bo'lgan ayrim o'quvchilar ham o'yin texnologiyalaridan foydalanilgan dars jarayonida faoliyati aktivlashadi bu esa fanga bo'lgan qiziqishni orttiradi. Bu esa unga kerakli bilimlarni tezroq va osonroq o'zlashtirishiga yordam beradi. Quyida mazkur sinflar uchun tarix fanidan dars jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan ta'limiylar o'yin texnologiyalari asosida tuzilgan o'qitish metodlarini tavsiya etaman: "Sirli eshiklarni oching-1" talimiylar o'yin texnologiyasi Tarix darslarini tashkil etishda ayniqsa Rolli oyin texnologiyalardan foydalanilgan oyinlarning orni ahamiyatlidir. chunki oquvchi ozi ijro etayotgan tarixiy obrazi yani qahramonini organish orqali malum bilimlarni toplasa uning ichki kechinmalarini his etish orqali olgan bilimlarini amaliyotda qollaydi. Faoliyatni rivojlantiruvchi o'yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, chog'ishtirish, o'xshashini topish, faraz, xayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, refleksiya, optimal yechimni topa olish, o'quv faoliyatini motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratilgan boladi. Yuqori sinflar uchun esa koproq Bahs-Munozaradan tashkil topgan oyinlar samaraliroq, chunki bu yosh davrida ular oz fikrlarini mustaqil bayon etishni, fikrni asoslash, isbotlash kabilarga moyil bo'lismi va dars jarayonida fikrni isbotlash urinish malum bilimlarni egallashni talab etadi bu esa mavzuni o'qishga turtki beradi. Namuna "Bahsda g'olib kelish san'ati": Darsda bahs-munozaraga olib chiqiladigan muammo oquvchilar uchun qiziqarli bolishi kerak. Masalan: Biz uchun hozir qay biri foydaliroq bo`lardi?.

1. Xonliklar birlashib dushmanga qarshi kurashganda;
2. Xonliklarimiz Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylantirilganda;
3. SSSR tarkibida qolish;

Fikringizni asoslab bayon eting.

Xulosa qilib aytganda, oquvchilarning o'quv faoliyati shaxsiy mohiyat sifatida qabul qilinadigan o'quv maqsadlariga ongli ravishda qaratilgan bolishi lozim. D.B.Elkonin ta 'kidlaydiki, o'quv faoliyati eng avvalo shunday faoliyatki, uning

natijasida o'quvchida o'zida ozgarish yuz beradi. Bu faoliyat o'z holicha o'zgarishdir. Uning mahsuli, subyektning o'zida yuz bergan ozgarishlaridir O'quv faoliyatining asosiy motivlari bu — ichki o'quv-bilish motivlaridir. O'quv faoliyatining eng muhim motivatsiyasi esa oquvchilarning shu fanga bo'lgan qiziqishi va moyilligidir. O`quvchilarning o'quv jarayonidagi egallagan bilimlaridan, va ko'nikmalaridan hissiy qoniqish va undan quvonch hissini hosil qilishi lozim. Bunday vazifalarni hal qilishda oqitish jarayonidagi oyinli texnologiyalardan foydalanish ulkan ahamiyat kasb etadi. O'yinli texnologiyalarda o'qitishning faol metodlaridan foydalanish muloqotning demokratik uslubi yutuqlaridan foydalanishga xizmat qiladi. Bu oquvchilarning ijodiy kuchlari va qobiliyatini o'stiradi. Zero, mashxur ingliz dramaturgi Benard shoua aytganidek- "Bilimga eltuvchi eng yaxshi yol-bu faoliyat".

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.N.Azizzxo'jayeva "Pedagogik texnologiyalar va mahorat" T.-2006 yil
2. H.T Omonov,H.B Xattarov "Pedagogik texnologiyalar va mahorat" T.-2016.